
MAKTABGA ZAMONAVIY O'QUV JIHOZLARI TOPSHIRILDI

Joriy o'quv yilidan Toshloq tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabida sinov tariqasida "Farg'ona ta'lim tajribasi" yo'lga qo'yilgan. Ayni kunlarda mazkur o'quv dargohida 1362 nafar o'quvchi bo'lib boshlang'ich sinflarning 176 nafar o'quvchilari "Farg'ona tajribasi" asosida tahsil va tarbiya olishmoqda. Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov tashabbusi bilan mazkur umumiy o'rta ta'lim maktabiga muassasada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim olishiga ko'maklashish maqsadida navbatdagi zamonaviy jihozlar eng so'nggi rusumdagi 7 ta sensorli interaktiv va 7 ta magnitli doskalar hamda 5 ta robototexnika jamlanmalari o'quv jarayonlarida foydalanish uchun ta'lim maskaniga topshirildi.

Tuman hokimligi tomonidan joriy o'quv yilida bu maktab uchun ayni maqsadlarda foydalanish uchun 500 million so'mlik o'quv jihozlari ham yetkazib berilgan edi. Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklarga muassasa o'quvchilari fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirish va namunali hulqlari bilan javob berishga astoydil harakat qilishmoqda.

2024-03-01 08:27:38